

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

GIMAZUTDINOV RADIK GALIMOVICH

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI BADMINTON
SPORTIGA O'RGATISH USLUBIYATI**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq-2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktor (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferat mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Gimazutdinov Radik Galimovich

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini badminton sportiga o‘rgatish uslubiyati.....3

Гимазутдинов Радик Галимович

Методика обучения игре в бадминтон учащихся начальных классов.....29

Gimazutdinov Radik Galimovich

Methodology for teaching badminton to elementary school students.....57

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....61

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

GIMAZUTDINOV RADIK GALIMOVICH

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI BADMINTON
SPORTIGA O‘RGATISH USLUBIYATI**

**13.00.04-Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.Phd/Ped3968 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasining www.jtsiti.uz “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Mardonov Shukurullo Ko‘ldoshevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Xolmurodov Laziz Zarifboyevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ishtayev Javlon Mavlonboyevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ibroximov Sanjar Urunbayevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Yangi O‘zbekiston ko‘chasi, ___-uy. Tel.: (0-370)-717-17-19, 717-27-27, faks: (0-370)-717-17-76, Veb-sayt: www.djtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat sport akademiyasi “Ma‘muriy” bino 1-qavat, 145-xona).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy). Tel.:(0-370)-717-17 79,717-27-27, faks:(0-370) 717-17-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” “_____” kuni tarqatildi.

(2025-yil “___” _____ dagi ____ raqamli reestr bayonnomasi)

F.A.Kerimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

D.Y.Egamov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.b.f.d. (PhD)

O.J.Dadabayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda jismoniy tarbiya va sport ta'limi tizimini modernizatsiyalash, kichik yoshdan sport turlariga yo'naltirish va maqsadli saralash uchun bolalarni qiziqishi, iqtidori, yoshi, jinsi va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda sog'lom, chidamli hamda irodaviy sifatlarga ega shaxs sifatida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi, tayyorgarligi, aqliy, individual ko'rsatkichlari bo'yicha ilg'or vosita va uslublarni darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlar jarayonida tizimli va samarali qo'llay olish imkoniyatlarini kengaytirish kabi muammolar jahon hamjamiyati mutaxassislari e'tiborida qolmoqda. Hozirgi globallashuv davrida o'quvchi-yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga qiziqtirish, zamonaviy ta'lim-tarbiya dasturlarini joriy qilish, individuallashtirish hamda darsdan tashqari mashg'ulotlarda bolalarning jismoniy va funksional holatini inobatga olgan holda kundalik harakat faolligini me'yorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda badminton sport turi rivojlangan mamlakatlarning olimlari tomonidan o'quvchi-yoshlarning yoshi, jinsi, individual va jismoniy harakat faolligini oshirish, darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini samarali tashkil qilish, sport turlariga erta yo'naltirish va saralash muammolariga qaratilgan izlanishlar olib borilmoqda. Jismoniy tarbiya dars mashg'ulotlarini zamonaviy ta'lim-tarbiya standartlariga to'laqonli rioya qilish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kundalik harakat faolligini oshirish talabini me'yorlash, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda qiziqqan sport turiga jalb etish, jismoniy rivojlanishini barqarorlashtirish hamda zamonaviy vosita va usullarni qo'llash kabi masalalarga ilmiy-amaliy jihatdan optimal yechim topish zaruriyati dolzarbligicha qolmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning harakat ko'nikma va malakalarini shakllantrish, texnik elementlarni o'zlashtirish, jismoniy tayyorgarligini oshirish va funksional holatini yaxshilash uchun darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida badminton texnik elementlaridan foydalangan holda jismoniy rivojlanish va tayyorgarligini oshirish muammosi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Respublikamizda aholi o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, aholi o'rtasida sportning ustuvor turlari ommaviyligini oshirish, iqtidorli yoshlarni saralash (seleksiya) kabi davlat dasturlari asosida amaliy jarayonlar olib borilmoqda. "Sportning ustuvor turlarini boshqarish tizimini takomillashtirish, aholi o'rtasida sportning ustuvor turlari ommaviyligini oshirish, iqtidorli yoshlarni saralash, sportning ustuvor turlari bilan shug'ullanish uchun shart-sharoitlar yaratish, ularni ommalashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, zamonaviy sport anjomlari bilan ta'minlash hamda sog'lom turmush tarzining eng muhim tarkibiy qismi sifatida jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qilish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan¹. Ushbu

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5282-son "Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va "Workout" sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. www.lex.uz.

ustuvor vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, ta'lim-tarbiya tizimini optimallashtirish, ommaviy sportning samaradorligini oshirish, jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini yaxshilash, yoshga xos asosiy jismoniy sifatalarini rivojlantirish hamda dastlabki harakat elementlarini sport turi orqali shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar olib borilmoqda. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsdan tashqari sport to'garagi mashg'ulotlariga jalb qilish ko'lamini kengaytirish, kundalik harakat faolligi me'yorini ta'minlash hamda ularni badminton sport turiga qiziqtirish va texnik harakatlarini o'rgatish bo'yicha izlanishlar olib borish muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 5-noyabrdagi "Yurish, yugurish, mini futbol, badminton, stritbol va "Workout" sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-martdagi 143-son "O'zbekiston Respublikasida badminton sport turini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish masalalari bo'yicha A.Abdullayev, Sh.X.Xonkeldiyev; boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiya darslari jarayonida harakatli o'yilardan foydalanish muammosi bo'yicha M.A.Aslova, M.Y.G'aniyeva, S.F.Suleymanova; badminton nazariyasi va uslubiyati yuzasidan O.M.Savatyugin, A.A.Pulatov, Sh.Sh.Isroilov; boshlang'ich sinflar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi bo'yicha F.D.Axmedov, Sh.U.Atamurodov, bolalar sportini rivojlantirishda xalq milliy harakatli o'yinlaridan foydalanish masalasi bo'yicha T.S.Usmonxo'jayev, K.Sh.Rahmonova, X.K.Berdiyevlar, badminton sport turini o'rgatishning namunaviy dasturini ishlab chiqish va takomillashtirish masalalari bo'yicha Ya.I.Katerinich, A.F.Smirnovalar hamda boshqa bir qator yurtimiz olimlari tomonidan tadqiq etilgan².

² Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti. Darslik. – T.: 2005. – 231 b. Aslova M.A. Ta'lim jarayonida harakatli o'yilardan foydalanish (boshlang'ich sinflarning jismoniy tarbiya darslari misolida). Diss.ped.fan.nom: T.: 2011. – 127 b. Savatyugin O.M., G'aniyeva M.Y., Suleymanova S.F. Sport pedagogik mahoratini oshirish (Badminton). O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2017.-198 b. Pulatov A.A., Savatyugin O.M., Isroilov Sh.Sh. Badminton nazariyasi va uslubiyati. (O'quv qo'llanma). T.: Fan va texnologiya, 2017. – 298

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlari tomonidan maktab o'quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilariga badminton sportiga o'rgatishning ilmiy asoslari masalalari bo'yicha A.A.Gujalovskiy, O.V.Jbankov, B.V.Glebovich, M.A.Ignatyev; badminton insonning intellektual salohiyatini rivojlantirish vositasi va harakarlarga o'rgatish uslubiyati muammolari bo'yicha V.A.Lepeshkin, V.G.Turmanidze, V.P.Pomitkin, J.A.Kolisnichenko, M.Tashtarian, T.M.Migalina, N.N.Melentyeva, Van Lin kabi olim va mutaxassislar tomonidan izlanishlar olib borilgan³.

Xorijiy mamlakat olimlari boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan jismoniy tarbiya darslarini tashkil qilish, jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, darsdan tashqari sport to'garaklarida bolalarning harakat faoliyatini oshirish, jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlar yordamida harakat ko'nikma va malakalarini shakllantirish masalalari bo'yicha O.Faude, S.Park, J.Abian–Vicen, Bemd-Volker Brahms, P.Deka va boshqalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan⁴.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faolligini oshirish, badminton harakat elementlariga o'rgatish muammolari bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyot manbalarini tahlili va ilg'or amaliy tajribalarni umumlashtirish, jismoniy rivojlanish va tayyorgarligini oshirish uchun darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini samarali tashkil qilish va badminton sport turi vositalaridan foydalanish hamda o'rgatish uslubiyatini ishlab chiqish bo'yicha yetarlicha izlanishlar olib borilmaganligi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshga xos

b. Axmedov F D., Atamurodov Sh.U. Boshlang'ich sinflar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. T .: 2019.-145 b.; Usmonxo'jayev T.S., Rahmonova K.Sh., Berdiyeva X.K. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya bo'yicha uzluksiz ta'lim. Fan-sportga. 2021. - №1. B. 43-45.; Катеринич Я.И., Смирнова, А.Ф. Бадминтон: / Я.И. Катеринич, А.Ф. Смирнова.-Ташкент: Umid Design", 2021.-112 с.

³ Гужаловский А.А. Развитие двигательных качеств у школьников / А.А. Гужаловский. – Минск: Народная Асвета. – 1978. – 88 с. Жбанков О.В., Глебович Б.В. Эффективность действий в бадминтоне – темп или точность? // Теория и практика физ. культуры. 1997. № 2. – С. 24–25. Игнатъев М.А. Бадминтон как одно из средств улучшения двигательных возможностей школьников с нарушением слуха: дис. ... канд. пед. наук: / Игнатъев М.А. – Чебоксары 2002.–179 с. Лепешкин В.А. Бадминтон для всех / В. А. Лепешкин. - Ростов-на- Дону : Феникс, 2007.-109 с.; Турманидзе В.Г. Бадминтон как средство развития интеллектуальных возможностей человека / В. Г. Турманидзе - М.: Спорт в школе, 2008. - 133 с.; Помыткин В.П. Книга тренера по бадминтону. Теория и практика. – М.: Первая Образцовая типография, 2012. – 344 с. Колисниченко Ж.А. Основы обучения бадминтону учащихся начальных классов. – Харьков: НУА.- 2019. – 24 с.; Таштарян М. Физическая и техническая подготовка юных сурдбадминтонистов с применением компьютерных технологий. дисс кандидат наук. – М., 2019. – 21 с. Мигалина Т.М. Обучение технике перемещений бадминтонистов 7–10 лет с применением специализированного оборудования. Автореферат дисс. кандидат наук. – М., 2019. – 28 с. Мелентьева Н.Н. Материалы международной конференции на тему “Современные проблемы физического воспитания, спорта и туризма, безопасности жизнедеятельности систем образования”. – М., 2021.–574 с.; Ван Линь. Коррекция физического развития и физической подготовленности детей младшего школьного возраста посредством игр и бадминтона (на примере Китайской Народной Республики): автореф. –Минск. 2022. – 42 с.

⁴ Faude O., Meyer T., Rosenberger F., et al. Physiological characteristics of badminton match play [J]. European Journal of Applied Physiology.- 2007. – 100 (4). – PP. 479–485. Park S., Lam, W., Ryu, J–s, et al. Effect of forefoot bending stiffness of badminton shoes sole on lower leg kinematics during match–like situations / In: Taylor & Francis Group, edito. Proceedings of the Eleventh Footwear Biomechanics Symposium [J]. Natal, 2013. – 5 (1). – PP. 133–135. Abian–Vicen J., Castaneda, A., Abian, P. et al. Influence of successive badminton matches on muscle strength, power and body fluid balance in elite players. – Int. J. Sports Physiol Perform, 2014. – 9 (4). – PP. 689–694. Bemd-Volker Brahms — Badminton Handbook. Training, tactics, competition. Maidenhead: Meyer and Meyer Sport (UK) Ltd., 2014. -400 p. Deka P., Berg K., Harder, J., et al. Oxygen cost and physiological responses of recreational badminton match play [J]. The Journal of Sports Medicine and Physical Fitness.- 2016. – 57 (6). – PP. 760–765.

harakatlarga o'rgatish metodologiyasini yanada takomillashtirish dolzarbligi belgilaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejalari muvofiq "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton sport turining dastlabki texnik harakatlariga o'rgatish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton sport turi texnikasiga o'rgatuvchi maxsus mashqlar majmuasini ishlab chiqish;

boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton sport turi texnikasiga o'rgatuvchi mashg'ulotlar dasturini darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida qo'llash;

boshlang'ich sinf o'quvchilarini badmintonga o'rgatishning pedagogik imkoniyatlarini asoslash;

boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton sportiga o'rgatishning komponentlari va tamoyillarini optimallashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini badmintonga o'rgatish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton sportiga o'rgatish mazmuni, shakli, uslublari, texnologiya va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, anketa so'rovnomasi, pedagogik kuzatish, testlash, pedagogik tajriba va matematik-statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton sport turining dastlabki texnik elementlariga o'rgatish uchun volan bilan janglyorlik, raketkaning ochiq tomoni bilan pastdan va yuqoridan zarba berish qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan (baland-olis zarba, yassi oshirish va yassi zarba berish kabi) maxsus mashqlarni kiritish hisobiga harakatlarni aniq bajarish imkoniyatlari oshirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida texnik-taktik tayyorgarligini oshirish uchun tanishuv, bazaviy, chuqurlashtirilgan, amaliy va mustahkamlash o'rgatish bosqichlari bo'yicha maydonda tezkor harakatlanish hamda juftlik va yakkalik o'yin ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan murakkab koordinatsion (180 va 360 gradusga sakrab aylanib volanga zarba berish kabi) mashqlarni kiritish hisobiga musobaqa ko'nikmalari shakllantirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilar bilan o'tkaziladigan darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini moderinzatsiyalash uchun badminton sportining maxsus

harakatlarini fundamental asosni o'z ichiga olgan maqsadli, metodologik, mazmunli va tashkiliy-uslubiy komponentlarni sensitiv davrlariga muvofiq geteraxron rivojlantirishga qaratilgan pedagogik modelni ishlab chiqish hisobiga tayyorgarlik tizimi takomillashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining badminton sportiga adaptatsiya qilish uchun tayyorgarlik bosqichlariga mos ravishda texnik harakatlarni rivojlantirish ko'rsatkichlariga refleksiv murakkablik darajalariga ko'ra (fiziologik-individual) moslashtirish hisobiga amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni optimallashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton sportiga o'rgatishning modeli asosida "Yosh badmintonchi" to'garagi faoliyatining pedagogik hamkorlik rejaları ishlab chiqilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarning badminton sportiga o'rgatish mezonlari asosida o'quvchilarni sog'lomlashtirish texnologiyalariga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton sportiga o'rgatish borasida "Volan bilan mo'ljalni ol", "Volanni uzat", "Bog'ingizni toshlardan tozalang", "Volan aylana bo'ylab", "Darvozabon" mavzularida jismoniy harakatli o'yinlar va sport musobaqalari o'tkazilgan;

boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun seminar-trening, to'garak va musobaqalarni tashkil etishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlarini hisobga olish hamda ularni muntazam ravishda jismoniy va fiziologik rivojlantirib borish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Qo'llanilgan yondashuv, usullar ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik usullar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning natijasining ilmiy ahamiyati, sharq mutafakkirlari ma'naviy merosi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton sportiga qiziqtirishning ijtimoiy, pedagogik, psixologik omillari tarkibi, shuningdek, didaktik tamoyillarning tarkibiy komponentlari (individuallik, natijaviylik, samaradorlik, qiyosiylik, ko'rgazmalilik) mazmunini aniqlashtirish asosida tarixiy tajribalar integratsiya qilinib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida badminton to'garagi tashkil etish jarayoniga oid nazariy yondashuvlar bilan boyitilganligi boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy sifatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari va ko'rsatkichlari hamda tadqiqot muammosining ijobiy yechimini ta'minlovchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati, boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton sportiga o'rgatish jarayonining metodik talablari boyitilgani, o'quvchilarning jismoniy sifatlarini shakllantirishda seminar-treninglar, to'garaklar faoliyati, sport

bayramlarini tashkil etishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlariga muvofiq rivojlantirish bo'yicha ilmiy-metodik ta'minot yaratilganligi, boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy sifatlarining rivojlanganligi, maktablar hamkorligi faoliyati monitoringi ko'rsatkichlariga (ijtimoiy, intellektual, psixologik, kommunikativ, moslashuvchanlik) ustuvorlik berish asosida takomillashtirilganligi, boshlang'ich sinf o'quvchilariga badminton sportini o'rgatish va ularni o'qitishning indikator va mezonlari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda badminton sportiga o'rgatish uslubiyatini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot ishidan olingan ilmiy natijalar asosida:

boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton sport turining dastlabki texnik elementlariga o'rgatish uchun volan bilan janglyorlik, raketkaning ochiq tomoni bilan, pastdan va yuqoridan zarba berish qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan (baland-olis zarba, yassi oshirish va yassi zarba berish kabi) maxsus mashqlarni mashg'ulotlar jarayonida qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar Andijon, Toshkent, Surxondaryo viloyatlarining umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun darsdan tashqari "Yosh badmintonchi" to'garagiga tatbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi respublika ta'lim markazining 2023-yil 15-iyundagi 01/11-01/1-526-son ma'lumotnomasi). Natijada, badminton sportining texnik elementlarini o'zlashtirish darajasi 11,4%ga oshgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida texnik-taktik tayyorgarligini oshirish uchun tanishuv, bazaviy, chuqurlashtirilgan, amaliy va mustahkamlash o'rgatish bosqichlari bo'yicha maydonda tezkor harakatlanish hamda juftlik va yakkalik o'yin ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan murakkab koordinatsion (180 va 360 gradusga sakrab aylanib volonga zarba berish kabi) mashqlarni qo'llash uslubiyati "Bolalarni badmintonga o'rgatish metodikasi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi № 232-son buyrug'iga asosan 232-636-son nashr guvohnomasi). Natijada, o'quvchilarning harakat faolligi 9,7%ga yaxshilangan;

boshlang'ich sinf o'quvchilar bilan o'tkaziladigan darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini modernizatsiyalash uchun badminton sportining maxsus harakatlarini fundamental asosni o'z ichiga olgan maqsadli, metodologik, mazmunli va tashkiliy-uslubiy komponentlarni sensitiv davrlariga muvofiq geteraxron rivojlantirishga qaratilgan pedagogik modeldan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar Andijon, Toshkent, Surxondaryo viloyatlarining umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya darslarida tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi respublika ta'lim markazining 2023-yil 15-iyundagi 01/11-01/1-526-son ma'lumotnomasi). Natijada, umumta'lim maktablari o'quvchilarining umumiy jismoniy tayyorgarlik

ko'rsatkichlari 12,6% ga, maxsus jismoniy tayyorgarligi 13,4% oshishiga erishilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining badminton sportiga adaptatsiya qilish uchun tayyorgarlik bosqichlariga mos ravishda texnik harakatlarni rivojlantirish ko'rsatkichlariga refleksiv murakkablik darajalariga ko'ra (fiziologik-individual) moslashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar "Bolalarni badmintonga o'rgatish metodikasi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi № 232-son buyrug'iga asosan 232-636-son nashr guvohnomasi). Natijada, o'quvchilarining badminton sport turi texnik elementlarini to'g'ri bajarish imkoniyati 14,2% ga yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 2 ta respublika va 2 ta xorijiy ilmiy jurnallarda, chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rt bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 160 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi hamda ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton sportiga o'rgatishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida, badminton sportining o'ziga xos psixologik-fiziologik xususiyatlari, tarixiy va zamonaviy aspektlari, boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton sportiga o'rgatishning pedagogik va fiziologik imkoniyatlarining mazmuni yoritilgan. Ushbu bobda badminton sportining kelib chiqish tarixi, rivojlanish bosqichlari, darsdan tashqari mashg'ulotlarda badminton o'yinini tashkil etishning metodik jihatlari asoslangan.

Badminton ommaviy va keng tarqalgan sport turi bo'lib, bolalarning jismoniy va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, funktsional holatini oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini ta'minlaydi. Badminton yugurish, sakrash, aerob va anaerob sport turlarining kombinatsiyasi bo'lib, ular barcha yoshdagi

odamlarga mos keladi. Bundan tashqari, bu sport turi zamonaviy va nafis hisoblanadi. Badminton mashg'ulotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining barcha bo'g'implari va mushaklari rivojlanadi va cho'ziladi, volanning trayektoriyasini kuzatish esa ko'zning charchashini kamaytiradi. Badminton sporti o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa jismoniy sifatlarni rivojlantiradi, harakat ko'nikmalarini kengaytiradi, irodaviy hissiy sifatlarni rivojlanishiga yordam beradi eng muhimi o'zining sog'ligiga qayg'urishni o'rgatadi hamda intellektual qobiliyatni ham rivojlantiradi. J.A.Kolisnichenko fikricha, "badminton o'ynash charchoq, zo'riqishdan holi bo'lgan ajoyib vositadir va uchib ketayotgan volanni kuzatish ko'zlar uchun foydali gimnastikadir" deb ta'kidlaydi.

Badminton mashg'uloti o'quvchilarni harakat tonusi va tezligini oshiradi, fazoni to'g'ri idrok qilish va tasavvurini rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton sportini puxta egallashlari quyidagi omillarga bog'liq:

o'qituvchi-murabbiy o'quvchilarni badminton sportiga jalb etganda ularning qiziqishi, imkoniyatlarini inobatga olgan holda "Badminton" to'garagini tashkil etishi lozim. To'garak jarayonida yuqorida keltirilgan omillarga tayanishi mashg'ulotni sifatli tashkil etishni ta'minlaydi. Badminton to'garagidagi mashg'ulotlar shunday olib borilishi kerakki, unda bolaning jismoniy, aqliy, irodaviy salohiyatining uyg'un rivojlanishini ta'minlaydigan va shu bilan birga optimal yuklama darajasini tashkil etilishini ta'minlashi kerak.

Badminton spor turini boshlang'ich sinflarda ommalashtirish ularni kelajakda olimpiada o'yinlariga ishtirok etishiga zamin yaratishi mumkin. Badminton mashg'ulotlari o'quvchilarda ko'rish qobiliyatining aniqligini oshirishga, harakat reaksiyalarining tezligini oshirishga va maydonning fazoviy tasavvurini shakllantirishga yordam beradi.

Erta yoshdan bolalarni badminton o'yini bilan tanishtirib borish maqsadga muvofiq. Ammo jiddiy, muntazam badminton mashg'ulotlari bilan shug'ullanishni boshlang'ich sinfdan boshlash lozim. Bundan tashqari, agar bolalarda mashq qilishga intilish bo'lsa, u darhol seziladi. Shuningdek, o'quvchilarda analitik, mantiqiy fikrlash va harakat sezgisi rivojlanadi. Badminton "Raketka bilan shaxmat" deb nomlanishi ajablanarli emas. Gap shundaki, raketka nafaqat urishi, balki raqibning harakatlarini bashorat qilishi, unga raketka bilan zarba bera olmaydigan shunday parvoz trayektoriyasi haqida ham o'ylashni taqozo etadi.

Badminton texnik elementlariga o'rgatish orqali, o'quvchilarning koordinatsion harakat qobiliyatini yaxshilash, ruhiy salomatlik, kuchli tana va umumiy salomatlik, suyaklarni mustahkamlash, o'yinning xavfsizligi, chaqqonlik, tezkorlik, egiluvchanlik, chidamlilik, kuch kabi jismoniy sifatlari shakllanadi hamda rivojlanadi. Fikrimizcha, boshlang'ich sinflarning o'quv rejasiga badminton sportini kiritilishi uzviylikni ta'minlash uchun ilmiy-uslubiy jihatdan zamin bo'ladi. Ya'ni, umumiy o'rta ta'lim va kasb-hunar maktabi, oliy ta'lim muassasasida o'quvchi-talabalarning samarali faoliyat yuritishi, intellektual salohiyatini oshirish, millatni ommaviy jismoniy kamol toptirtirish, sog'lom

turmush tarzini shakllantirish, harbiy xizmatga tayyorlash, aqliy va jismoniy rivojlantirish muammolarini hal qilishga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton sportiga o'rgatishda mashg'ulot jarayonining asosiy yo'nalishi bolalarning sportga barqaror qiziqishini uyg'otish, harakatlar ko'nikmasi va qobiliyatlarini rivojlantirish, badminton o'ynash ko'nikma va malakasini shakllantirishdan iborat.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton sport turining dastlabki texnik harakatlariga o'rgatish orqali ularning yoshga xos harakat ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda harakat faolligini oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot usullari va ulning tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida, tadqiqot va pedagogik tajribani tashkil etish masalalari ilmiy, ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, nazariy qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, anketa so'rovnomalar, pedagogik tajriba sinovi, pedagogik testlash, tadqiqotning tashkil qilinishi hamda matematik-statistika usullari yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotlar 2020-2023-yilgacha bo'lgan davrda o'tkazilgan va bir necha ketma-ket bosqichlardan tashkil topgan.

Birinchi bosqichda 2020-2021 yillar jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi bo'yicha ishlar tahlil qilingan, pedagogik, ijtimoiy va tibbiy biologik yo'nalishdagi adabiyotlar o'rganilgan, tadqiqot metodologik apparati shakllantirilgan. Birinchi bosqich natijalari ikkinchi bosqichni o'tkazishga asos bo'lib xizmat qiladi.

2021-2022 yillarda, ikkinchi bosqichning vazifasi umumiy o'rta ta'lim maktablarida darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladigan **“Yosh badmintonchi”** to'garagida individuallashtirish tamoyilini tatbiq etish uchun dastur ishlab chiqishdan iborat, anketa so'rovnomalar o'tkazish, o'quvchilardan maxsus jismoniy tayyorgarliklarini turli tomonlarini baholash uchun testlar olish orqali amalga oshirildi.


2022-2023 yillarda, o'tkazilgan pedagogik tajribaning asosiy uchinchi bosqich dasturlarini ishlab chiqilishiga asos bo'lgan tayyorgarlik davri bosqichlarida amaliyotda qo'llanilayotgan yuklamalar samaradorligini o'rganib chiqish va baholash hisoblanadi. Uning maqsadi, tayyorgarlik davri bosqichlarida taklif qilingan mashg'ulot jarayonlari dasturining samaradorligini tadqiqotlarda tekshirish hisoblanadi va tadqiqot natijalari tahlili va matematik ishlanmalar keltirilgan. Davrlar bosqichida yuklamalar, mashg'ulot yuklamalarining qo'llanilishi dissertatsiyaning to'rtinchi bobida batafsil bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton sportiga o'rgatishning pedagogik, didaktik imkoniyatlari va amalga oshirish mexanizmi”** deb nomlangan uchinchi bobida, boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton sportiga o'rgatishning mazmuni va komponentlari, o'quvchilarni badminton sportiga o'rgatish modeli va uning funksiyalari, boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton sportiga o'rgatish metodikasi, didaktik prinsiplari,

metodlari va vositalari aniqlashtirilgan, tadqiqotning nazariy-amaliy asoslari ishlab chiqilgan.

Umumiy oʻrta taʼlimning jismoniy tarbiya fani boʻyicha milliy oʻquv dasturida boshlangʻich sinf oʻquvchilari estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi boʻyicha qoʻl va oyoq holatlarini fazalarga eʼtibor qaratish boʻyicha maʼlumotga ega boʻladi, oʻz-oʻzini rivojlantirish va asrash kompetensiyasi boʻyicha qisqa masofaga yugurish jarayonida oyoq harakatlarini toʻgʻri bajarish tartibiga amal qiladi, oʻquvchilarni yurish, yugurish, sakrash va uloqtirish kabi mashqlar haqida nazariy va amaliy bilimga ega boʻlishi belgilangan. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining jismonan sogʻlom qilib tarbiyalash jismoniy koʻrsatkichlarini oshirish va tayyorgarligini yaxshilash uchun badminton mashgʻulotlari samara beradi. Badminton sogʻlomlashtiruvchi sport turi sifatida jismoniy sifatlarni mutanosib rivojlantiradi, tezkorlik, kuchlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik va chidamlilikni oshirish mashqlarini oʻz ichiga oladi. Xorijiy va milliy tajribalar tahlili umumiy oʻrta taʼlimning boshlangʻich sinflardan (3-4 sinf) badminton sport turini oʻrgatish zarur ekanligini koʻrsatdi.

Pedagogik tadqiqot ishlariga 631 nafar boshlangich sinf oʻquvchilari jalb etildi, yaʼni tajriba guruhidagi oʻquvchilar soni 316 nafarni, nazorat guruhida esa 315 nafarni tashkil etdi. Pedagogik tajriba-sinov natijalarini tahlil etishda oʻquvchilar bilan olib borilgan soʻrovnomalar yuzasidan olingan tajriba guruhigi va nazorat guruhigi natijalarga asoslangan holda matematik-statistik tahlili qilindi. Olingan natijalar quyidagi jadvalda aks etgan (1-rasmga qarang).




1-rasm. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining badminton sportiga oid maʼlumotga egalik darajasi koʻrsatkichlari

Masalaning qisqacha mohiyati quyidagilardan iborat: ikkita bosh toʻplam berilgan boʻlsin. Biri oʻquvchilarning pedagogik tadqiqot boshida bilimini oʻrtacha ballari, ikkinchisi esa oʻquvchilarning pedagogik tadqiqot oxiridagi bilimini oʻrtacha ballari. Baholar normal taqsimotga ega deb hisoblanadi. Bunday faraz oʻrinlidir, chunki normal taqsimotga yaqinlashish shartlari sodda boʻlib, ular bajariladi.

Tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari va o'quvchilar sonini mos ravishda belgilab olib, quyidagi statistik sinflangan variatsion qatorlarga ega bo'lamiz, shuningdek, yuqori ko'rsatkichni 3 ball bilan, o'rta ko'rsatkichni 2 ball bilan va quyi ko'rsatkichni 1 ball bilan belgilaymiz. Jadval natijalariga asoslangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining badminton sportiga oid ma'lumotga egalik darajasi ko'rsatkichlari yuzasidan tajriba boshi va yakunidagi natijalarni tahlili bo'yicha tajriba va nazorat guruhigi o'zlashtirish natijalari matematik-statistik tahlil etildi. Olingan natijalardan boshlang'ich sinf o'quvchilarining badminton sport turi haqida bilim, ko'nikma va malaka ko'rsatkichlari darajasi samaradorligini baholash mezonini birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezonini noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba sinfidagi o'zlashtirish nazorat sinfidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan. Demak, darsdan tashqari vaqtda olib borilgan mashg'ulotlar jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini badmintonning dastlabki texnik harakatlariga o'rgatish yuzasidan o'tkazilgan pedagogik tadqiqot ishlari samarador ekan.

O'quvchilarning jismoniy rivojlanish darajasiga qarab, o'rganishning dastlabki bosqichida texnik harakatlarning qayta takrorlab bajartirilishi turli xil tezlikda amalga oshiriladi. Tadqiqotlarimiz shuni dalilladiki, jismoniy rivojlanishi yuqori bo'lgan bolalar o'yin texnikasini past darajadagi bolalarga qaraganda tezroq o'zlashtiradi. O'qituvchi-murabbiy bolalarni badmintonga o'rgatish jarayonida turli xil usul va shakl, komponentlarga tayanadi. Tadqiqot doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton sportiga o'rgatish komponentlari aniqlashtirildi (2-rasmga qarang).




2-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badmintonga o'rgatish komponentlari

Badminton o'ynashni boshlaganda o'quvchilarda chidamlilik jismoniy sifatlari sustroq bo'lishi mumkin, shuning uchun ko'proq takrorlash va uzoq muddat davomida mashq qilish muhim. Boshqa barcha sport turlari kabi badminton o'yinida ham zamonaviy va mukammal texnikalar mujassam bo'lib, o'qituvchi-murabbiylar o'z faoliyatida ulardan foydalanishi lozim. Harakatlarning aniq qoidasi mavjud emas, chunki, barchasi individual ravishda o'ziga xosdir. Bu o'quvchining jismoniy holati, uning asab tizimi, jismoniy va axloqiy-irodaviy tayyorgarligi bilan belgilanadi. Individual farqlar har bir o'quvchining o'zini

mahorati, lekin texnika qanchalik mukammal bo'lsa, undagi farqlar shunchalik kam bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga badminton o'yinining texnik elementlariga o'rgatish jarayoni, nafaqat jismoniy tarbiya va sport ko'nikmalarini rivojlantirish, balki o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga ham yordam beradi. Badminton sporti tezlik, kuch, koordinatsiya va strategiya talab qiladigan faoliyat bo'lib, uning asosiy qoidalari va texnikasini bilish o'quvchilarga bu sportda muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton o'yinining texnik harakatlariga o'rgatish uslubiyati

Yuqorida keltirilgan uslubiyatni amalga oshirish uchun mashg'ulotlar olib boriladigan joyni belgilangan talab asosida tayyorlash (jismoniy tarbiya zalida ustunlari mustaxkamlangan, badminton to'ri tortilgan maydon, raketka, volan), badminton o'yinining texnik harakatlariga o'rgatish uslubiyatini mashg'ulotning asosiy qismiga kiritish orqali mashg'ulot vaqtidan samarali foydalanishni muvofiqlashtirish, badminton o'yinining texnik harakatlarini o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun maxsus testlarni belgilab olish kabi vazifalarni

tizimlashtirish lozim. Uni samarali amalga oshirish uchun bolalarning yoshi, jismoniy tayyorgarlik darajasi, psixo-emotsional holati, o'qituvchi-murabbiyning kasbiy-amaliy malaka darajasi kabi bir qator talablar va me'yorlar bilan belgilanadi. Xuddi shu omillar badminton o'yinining texnik harakatlariga o'rgatish uchun sharoitlarni tashkil qilish, pedagogik ta'sirning o'ziga xos uslublari va usullarini qo'llashga asoslangan badminton sport turi mashqlar majmuasidan foydalanish sezilarli ta'sir qiladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badmintonning dastlabki texnik elementlariga o'rgatish bosqichlari

T/r	Bosqich	Mashg'ulot vazifasi	Badminton texnik-taktik harakatlarni o'rgatish ketma-ketligi	Metodik tavsiyalar
1	Tanishuv	Badmintonga qiziqish uyg'otish	Badmintonning asosiy qoidalari bilan tanishish	O'yin elementlari orqali mashg'ulotni qiziqarli tashkil etish
2	Bazaviy	Raketka va volan bilan ishlashni o'rganish	Volanni to'g'ri ushlash va raketkada zarba berish	Qadamlar va zarbalarni oddiy usullarda ko'rsatish
3	Chuqurlashtirilgan	Maydonda harakatlanish ko'nikmalarini shakllantirish	Maydonda to'g'ri harakatlanish va o'yin pozitsiyalarini o'rganish	Harakatni soddalashtirish va o'quvchilarga yordam berish
4	Amaliy	Juftlik va yakka o'yinlar o'ynashni o'rgatish	Juftlikda va yakka tartibda o'yinlarni harakatlar	O'yin davomida qoidalarga rioya qilishni tushuntirish
5	Mustahkamlash	Texnik ko'nikmalarni mustahkamlash	Zarba berish texnikasi va taktik ko'nikmalarni rivojlantirish	O'quvchilarga texnik va taktik tavsiyalar berish

Bunda, 3-4 sinf o'quvchilarining individual yosh xususiyatlari hayotning madaniy va tarixiy muhiti, ularning rivojlanishi, ta'lim va tarbiyasiga ta'sir qiluvchi sharoitlar yaratildi. Badminton mashg'ulotlarida bolalarning yosh xususiyatlari va aqliy rivojlanish darajalari ham ijobiy tomonga o'zgara boshlaydi. Ayniqsa, badminton o'yinini tashkil qilishda kichik maktab yoshidagi bolalarning dinamik xususiyatga ega bo'lgan qiziqishlari, motivlari, ehtiyojlarini hisobga olish zarur (2-jadvalga qarang).

Bu yoshdagi bolalarga texnik harakatlarni o'rgatishga tayyorgarlik ko'rish va bajara olish tuyg'usini rivojlantiruvchi, mushaklarni asosiy mashqlarni bajarish uchun tayyorlovchi, chaqqonlik va tezlik sifatlarini yaxshilashga qaratilgan turli xil maxsus mashqlarni o'z ichiga olgan individual dastur ishlab chiqish talab etiladi. Mashqlar raketka, volan yoki raketka va volan bilan qo'llaniladi.

Boshlang'inch sinf o'quvchilarini badminton sportining dastlabki texnik harakatlariga o'rgatish metodikasi

T/r	Mashq nomi	Mashq davomiyligi	Dam olish oralig'i	Metodik ko'rsatmalar
1	Raketkani to'g'ri ushlash va nazorat qilish	10 daq.	2 daq.	- o'quvchilarga raketkani to'g'ri ushlash texnikasini ko'rsatish (qattiq siqib emas, qulay tarzda); - to'g'ri ushlash va tutishni mustahkamlash uchun oddiy volanni oshirish mashqlari bilan bog'lash.
2	Volanni to'g'ri uzatish (old zarba)	15 daq.	3 daq.	- volanni ko'krak balandligida oldinga zarba bilan uzatishni tushuntirish; - o'quvchilarga volanni to'g'ri uzatish texnikasini yengil zarba bilan o'rgatish va amaliyotda qo'llash.
3	Volanni yuqoriga uzatish	12 daq.	1,5 va 2 daq.	- o'quvchilarga volanni yuqoriga kuchsiz zarba bilan uzatish usulini tushuntirish; - volanni yengil zarba bilan yuqoriga uzatish uchun qo'llarni qanday harakatlantirishni ko'rsatish.
4	Volanni pastdan urib qaytarish	10 daq.	1,5 va 2 daq.	- volanni pastdan zarba bilan qaytarishni tushuntirish va ko'rsatish; - o'quvchilarga volanni past pozitsiyadan qaytarish texnikasini o'rgatish va amaliy mashqlar bajarish.
5	Volanni aniq yo'naltirish	15 daq.	3 daq.	- volanni maydonning aniq joyiga yo'naltirish texnikasini ko'rsatish (belgilangan joylarga volanni zarba bilan yo'naltirish); - har bir o'quvchi volanni o'z sherigiga aniq uzatishga harakat qiladi.
6	Tezlik va koordinatsiya mashqi	10 daq.	2 daq.	- volanga yon tomonga tezlikda harakatlanib zarba berish ko'nikmalarini o'rgatish; - o'quvchilarga volanni tez harakat bilan yon tomondan qaytarishni mashq qildirish.
7	Jamoaviy o'yinlar (2x2)	20 daq.	5 daq.	- o'quvchilarni 2 kishidan jamoalarga bo'lib volanni oshirish orqali jamoaviy o'yinlar tashkil etish; - jamoaviy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun o'yinda pozitsiyalar almashinishni tavsiya qilish.
8	Volan tezligi va aniq zarba berish	15 daq.	3 daq.	- volan tezligini oshirish va zarbani kuchliroq qilish uchun volanni to'g'ri ushlash va raketka harakatini tezashtirish texnikasini tushuntirish; - o'quvchilarga volanni kuchli zarba bilan raqib maydoniga yo'naltirishni mashq qildirish.
9	Badminton minni turniri (o'yin amaliyoti)	30 daq.	10 daq.	- o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib minni-turnir tashkil etish (yakka tartibda yoki jamoalarda); - amaliy o'yin davomida har bir o'yinchining volanni oshirish, zarba berish va maydondagi joylashuvini kuzatish va baholash.

Izoh: Mazkur metodikada berilgan mashqlarning bajarilish davomiyligi hamda dam olish oralig'i bolalarning yoshi, jinsi va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil qilinishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga badmintonning dastlabki texnik harakatlari bilan tanishtirish va asosiy ko'nikmalarini shakllantirish uslubi

1-Hafta: dastlabki texnik harakatlar bilan tanishtirish va asosiy ko'nikmalarini shakllantirish			
Mashq nomi	Mashq davomiyligi	Dam olish oralig'i	Metodik ko'rsatmalar
Raketka va volan bilan tanishtirish	10 daq.	-	O'quvchilarga raketka va volan bilan amaliy tanishtirish. Har bir o'quvchiga raketkani to'g'ri ushlab va volanni qanday boshqarish mumkinligini tushuntirish.
Volanni qo'lda oshirish	15 daq.	2 daq.	O'quvchilarga volanni raketkasiz qo'lda bir-biriga oshirishni o'rgatish. Bu mashq volanning harakatini tushunishga yordam beradi. O'yinchilar bir-biriga volan oshirib, texnikani bilishadi.
Volanni raketka bilan yuqoriga oshirish	20 daq.	3 daq.	Volanni raketka bilan yuqoriga oshirish texnikasi o'rgatiladi. O'quvchilar volanni o'z-o'zlariga yoki sheriklariga yuqoriga uzatib turishadi. Ushbu mashqda to'g'ri zarba berish texnikasiga e'tibor qaratiladi.
2-Hafta: Raketkani boshqarish va volanni uzatish			
Mashq nomi	Mashq davomiyligi	Dam olish oralig'i	Metodik ko'rsatmalar
Raketkani to'g'ri ushlab	10 daq.	-	O'quvchilarga raketkani to'g'ri ushlab texnikasi ko'rsatiladi. Ushbu mashq davomida o'qituvchi o'quvchilarning qo'l pozitsiyasini tekshirib turishi va to'g'ri ushlabni ta'minlashi kerak.
Volanni yon tomonga uzatish	15 daq.	2 daq.	Volanni yon tomonga zarba bilan uzatishni mashq qilish. O'quvchilar volanni yon tomonga, o'ng va chap tomonga oshirishadi. O'qituvchi volanning to'g'ri oshirilishini kuzatib borishi kerak.
Volanga old zarba berish	20 daq.	3 daq.	Volanga raketka bilan old zarba berish texnikasini mashq qilish. O'quvchilar volanni sheriklariga old zarba bilan uzatishadi. Zarba kuchini nazorat qilish va volanning yo'nalishini aniqlashga e'tibor beriladi.
3-Hafta: Volanni uzatish va qabul qilish			
Mashq nomi	Mashq davomiyligi	Dam olish oralig'i	Metodik ko'rsatmalar
Volanni sherikka uzatish	15 daq.	2 daq.	O'quvchilar volanni sheriklariga oshirishni mashq qilishadi. Raketka bilan volanni to'g'ri yo'naltirish texnikasini o'rgatish. O'yinchilarning volan oshirish tezligi va aniq zarbalariga e'tibor berish.
Volanni qabul qilish	15 daq.	2 daq.	O'quvchilar volanni qabul qilish texnikasini mashq qilishadi. O'qituvchi volanning harakatini kuzatib, o'quvchilarga volanni qanday to'g'ri qabul qilish kerakligini tushuntiradi.
Volanni pastdan zarba bilan oshirish	20 daq.	3 daq.	O'quvchilar volanga pastdan zarba berish texnikasini mashq qilishadi. Ushbu mashq volanning maydon bo'ylab harakatini tushunishga yordam beradi. Pastdan zarbalar bilan volanni yo'naltirishga diqqat qaratiladi.


3-jadval davomi

4-Hafta: Volan harakatini boshqarishga o'rgatish			
Mashq nomi	Mashq davomiyligi	Dam olish oralig'i	Metodik ko'rsatmalar
Volanni aniq zarba bilan boshqarish	15 daq.	2 daq.	Volanga aniq zarba berish texnikasini o'rgatish. Har bir o'quvchi volanni to'g'ri yo'naltirishga e'tibor beradi. O'qituvchi volanning aniq yo'nalishini va zarba texnikasini nazorat qiladi.
Volanni yuqoriga zarba berish	15 daq.	2 daq.	O'quvchilar volanni yuqoriga uzatishni o'rganishadi. Volan havoda uzoqroq turishi uchun kuchli zarba berish texnikasini mashq qilish. Volanning yo'nalishi va balandligini kuzatib, zarbani nazorat qilish kerak.
Volanni pastga zarba bilan yo'naltirish	20 daq.	3 daq.	Volanni pastga zarba berish texnikasini mashq qilish. O'quvchilar volanni pastdan to'g'ri yo'naltirishni o'rganadilar. Pastdan zarba berish texnikasiga e'tibor berish va volanni yerga yaqin yo'naltirish kerak.
5-Hafta: O'yin strategiyalari			
Mashq nomi	Mashq davomiyligi	Dam olish oralig'i	Metodik ko'rsatmalar
Volanni raqib maydoniga uzatish	20 daq.	3 daq.	O'quvchilarga volanni raqib maydoniga aniq va kuchli zarba bilan yo'naltirish texnikasi o'rgatiladi. O'yin davomida volanning raqib maydoniga tushish joyiga e'tibor beriladi. O'yinchi pozitsiyasi va harakatlari kuzatiladi.
Volan harakatini tezlashtirish	15 daq.	2 daq.	Volanni tez uzatish va qabul qilish texnikasi mashq qilinadi. Har bir o'yinchi volanni imkon qadar tezroq qaytarishga harakat qiladi. Bu o'yin tezligini oshirish va chaqqonlikni rivojlantirishga yordam beradi.
Jamoaviy o'yin texnikalari	20 daq.	3 daq.	O'quvchilar volanni birgalikda uzatishni va jamoaviy ishlash texnikalarini o'rganadilar. O'yinchilarning harakatlarini sinxronlashtirish va o'zaro hamkorlikda volanni nazorat qilish o'rgatiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton o'yinining dastlabki texnik elementlariga o'rgatish uchun ishlab chiqilgan mashqlar majmuasidagi mashqlarni birgalikda, ketma-ket, tanafuslarsiz yoki qisqa dam olish oralig'ida bajarish hamda qat'iy tartiblashtirilgan mashq uslubidan foydalangan holda aylanma mashg'ulot usuli yordamida bir necha takrorlashdan iborat bo'ladi.

